

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika fakulteti

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrası

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim yo`nalishi

4-kurs 3 guruh talabasi Safarov Zarifning

5-7 sinflarda naturaga qarab rasm ishlash mashg`ulotlari
metodikasi mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

Raximov O.D.

Navoiy – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....

I–BOB. TASVIRIY SAN`ATNI O`QITISH METODIKASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA.....

1.1. Chet ellarda tasviriy san`atni o`qitish tarixidan.....

1.2. O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitilishi.....

II–BOB. 5-7 SINFLARDANATURAGA QARAB RASM ISHLASH MASHG`ULOTLARI METODIKASI.....

2.1. Naturaga qarab rasm ishlash.....

2.2. Kompazitsiya mashg`ulotlari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

KIRISH

1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy» dasturi qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan, uning «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari» qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillaridan bin ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. U ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligini qayd etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagi «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida» qaroriga muvofiq Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun malakali pedagog-kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasi, deb belgilandi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari uchun tasviriy va amaliy san'atni o'qitilishini takomillashtirish borasida bir qator mualliflar tomonidan Oliy o'quv yurtlari bo'yicha o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar tayyorlangan va chop etilgan. Shularni e'tiborga olib bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi fanning barcha bo'limlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, boshqa fanlar bilan aloqalari, san'atshunoslik va gumanitar yo'nalishlari haqida aniq tasavur va ularni amalda qo'llash malakalariga ega bo'lishi zarur. Kasb-hunar kollejlarda yosh, badiiy ijodkor talabalarni tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim rassom-pedagoglar oldiga mazmunan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shuning uchun ushbu qo'llanmada o'quv dastur asosida fan o'qituvchisi bilishi zarur bo'lgan mavzularni yoritishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Metodika ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazniun xususiyatlarini qarab chiqadi. Ma'lumki, o'qitish jarayonida xilma-xil metodlar qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarini joylashishi (o'quv reja, dastur), ta'lim prinsiplari va o'quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika soʻzi, avvalo, taʼlim va tarbiyaning samarali usullarini majmui maʼnosiga aytiladi.

«Metod» grekcha soʻz boʻlib, «tadqiqot yoʻli», «bilish usuli» maʼnosini anglatadi. Pedagogikada oʻqitish metodlari deganda, umumiy oʻrta maktab, oʻrta maxsus kasb-hunar kolleji oʻquvchilarining bilim, malaka va koʻnikmalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda oʻqituvchilarning qoʻllagan ish usullari tushuniladi.

Amaliy metodika esa taʼlim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini oʻrganadi. Pedagogik mahorat, koʻnikmalarni oʻrganish va uni egallashga qaratilgan maʼlum isteʼdod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud boʻlishini talab etadi, chunki tasviriy sanʼat pedagogikaning mashaqqatli va murakkab hamda masʼuliyatli sohasidir.

Oʻqitish sanʼati amaliy mashgʻulotlar mobaynida, uzoq ijodiy mehnat orqali egallanadi.

Demak, tasviriy sanʼat oʻqitish metodikasi pedagogika ilmining taʼlim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali oʻquv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yoʻllarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Kurs ishining maqsadi –

Men oʻz kurs ishimda Tasviriy sanʼat haqida umumiy tushuncha berishni va 5-7 sinflarda naturaga qarab rasm ishlash mashgʻulotlari metodikasini oʻrganishni oʻz oldimga maqsad qilib qoʻyaman.

Kurs ishining vazifasi:

– Tasviriy sanʼat haqida bilimimni rivojlantirish.

Kurs ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, jami ____ sahifani tashkil etadi.

I-BOB. TASVIRIY SAN`ATNI O`QITISH METODIKASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA.

O`qitish metodikasi deganda ta`lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yul va uslublar yig`indisi tushuniladi. Mashg`ulotni metodik jihatdan tug`ri tashkil etish esa o`qituvchining o`z oldiga quygan maqsadiga xam bog`liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy yo`llar bilan, oddiydan-murakkabga borish printsipida ma`lum ketma-ketlikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq, qilib aytganda, o`qitish metodikasi to`g`ri tanlanganda o`quvchilar ko`zda tutilgan o`quv materialini puxta o`zlashtiradilar va ularda o`zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo`ladi.

Metodika so`zining uzi ikki xil bo`ladi: ular umumiy va xususiy metodika hisoblanadi.

Umumiy metodika maktabda olib boriladigan barcha ta`lim-tarbiya ishlariga, xususiy metodika esa u yoki bu o`quv predmetiga nisbatan qo`llaniladi. Metodika, ko`pincha pedagogika, psixologiya va san`atshunoslik, estetika sohasidagi nazariy xulosalarga tayanib ish ko`radi.

Pedagogik nazariyada uch xil metod bo`lib, asosan nutqiy, namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o`z o`rnida mayda metodlarga ham bo`linadi. Masalan, nutqiy metod hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash v.b. shu kabi metodlardan tashkil topadi.

Ko`rgazmali metod esa kuzatish, namoyish etish kabilardan, amaliy ish esa mashq, rasm ishlash, ijodiy ish, uyin kabi metodlarga bo`linadi.

O`qituvchilar faoliyatida «uslub» degan suz ham ishlatiladi. «O`qitish uslubi» deb biz o`qitish metodlarining ayrim qirralarini tushunamiz. «O`qitish uslublaridan» o`qitish metodi tashkil topadi.

Masalan, «namoyish etish» metoda asosida o`qituvchi mashg`ulot o`tkazganda, u ekranga san`at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushiradi. Bu jarayonda o`qituvchi suratdagi biron shaklni yirik qilib ko`rsatishi usul hisoblanadi. Shu o`rinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol-javob o`tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O`qituvchi o`qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u rangshunoslik, perspektiva, yorug` soya, kompozitsiya qonunlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki, tasviriy san`atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o`rgatganda yoki tasviriy san`atning u yoki bu faoliyat turini o`qitganda o`qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O`qitish metodikasining tarixi juda uzoqlarga ya`ni kishilar qachon bir-birlariga rasm chizishni o`rgata boshlagan paytlariga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib borgan, davr o`tishi bilan o`qituvchilar, olimlar uning yangidan-yangi qirralarini ochganlar va u mutaxassislar orasida tarqalgan.

Shuni xam kayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bulsa-da, uni bir o`qituvchi, ikkinchi o`qituvchidan o`rganib, shundayligicha qullayvermaydi. Uni xar bir o`qituvchi o`z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusi uning o`ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olishi lozim. Shunga ko`ra boshka o`qituvchi qullayottan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o`qituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi ham mumkin.

Shuning uchun qo`llashga muljallangan har bir metod pedagogik faoliyat davomida tajriba-sinovdan o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Sinov bir marta emas, bir necha marta o`tkazilishi lozim bo`ladi. Chunki, bir sinfga muljallangan bir metodika boshqa vaqtda yuqorida qayd qilinganidek, sharoitga qarab boshqa sinfdan boshqacha natija berishi mumkin. Tanlangan va qullanib kelinayotgan har bir metod shaklan o`zgarmay qolsa ham, mazmunan o`zgarishi ham mumkin. O`qituvchining to`xtovsiz izlanishlari, tajribalari asosida uning yangidan-yangi qirralari ochilaveradi. Mutaxassislar orasida tasviriy san`atni o`qitish metodlariga turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh mutaxassislar o`qitish metodlari yagona tizim, yagona talablarga javob berishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikrlariga qaraganda, har bir metod jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bo`lgan, uni o`zgartirmasdan shundayligicha qo`llash lozim. Boshqa guruh mutaxassislarining fikrlariga qaraganda o`qitish metodining asosini har bir o`qituvchining shaxsiy ish

tajribasi tashkil etishi kerak. Bizningcha, masalaga bunday yondoshish to'g'ri emas. Ta'lim-tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi, u doimo taraqqiy egadi. Bunda O'qituvchining tajribasi albatta, katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, pedagogik amaliyotda sinfdagi shart-sharoitlarni hisobga olib, shakllangan metodika asosida xam, o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalanaverish lozim.

O'qituvchi o'qitish metodikasini ish jarayonida o'z-o'zidan egallayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o'tkazishi, ko'p adabiyotlar o'qishi, ilg'or tajribalarni o'rganishi hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarishi asosida paydo bo'ladi. Shuningdek, u jamiyat taraqqiyoti davrida shakllangan o'qitish metodlarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etishi va uni zamon ruxiga moslashtirgan holda qayta ishlashi asosida namoyon bo'ladi.

XVII-XIX asrlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodlarini takomillashtirishda chet el pedagoglaridan Jon Lokk, Jan Jak Russo. Iogani Genrix Pestalottsi, Peter Shmidt, A.Sapojnikov, G.Gippius, N.Kramskoylar katta xissa qo'shgan bo'lsalar, XX asrda rus pedagog-olimlaridan E.S.Kondaxchan, G.B.Labunskaya, N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, E.E. Rojkovalar, O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish metodikasini oyoqqa turgazishda rassom-pedagoglardan M.Nabiev, B.Oripov, Q.Qosimov, B. Azimovalarning xizmatlari katta bo'ldi.

1.1.Chet ellarda tasviriyy san`atni o`qitish tarixidan

Jahonda tasviriyy san'atni o`qitilishi haqida dastlabki ma'lumotlar etarli bo`lmasada, biroq qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi 3- asrlarga doir materiallar ham mavjud. Qadimgi Misrda tog` qoyalariga uyib ishlangan haykallar, shuningdek rangtasvir asarlari uzining yuksak badiiyligi va ishlanish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmokda.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, bunday san'at asarlari qanday shaklda bo`lishidan qattiy nazar ularni maxsus maktablarsiz yaratib bo`lmaydi. Kishilar o`z tajribalarini keyingi av-lodlarga turli yullar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o`tkazib kelganlar desak yanglishmagan bo`lamiz. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o`rgatishga doir tarixiy manbalar guvoxlik beradi, Tasviriyy san'atni o`qitishishi bilan odamlar qadimdan shug`ullanib kelganliklari kuproq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o`rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog`liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o`lchash va uni qog`ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirlay oladigan bulishlari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bo`lgan.



Masalan «o» harfini o`rgatish uchun oyoq rasmi, «q» harfini o`rgatish uchun qul rasmi chizdirilgan.

Bolalarni rasm chizishga o`rgatishda qulni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, engil, ravon chiziqlar chizish doskada yoki papirus qog`ozlarda bajarilgan.

Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, bu davr maktablarida faqat bolalar o`qiganligi sababli ularga nihoyatda yuqori talablar qo`yilgan.

Shuning uchun ham talab va ko`rsatmalarga rioya qilinmaganda bolalar qattiq jazolangan, hattoki yog`och bilan kaltaklangan.

Misr maktablarida rasm chizishga o`rgatish nazariyasi bor-yo`qligi ma'lum bo`lmasada, ayrim rasm chizish qoidalari qo`llanilgan. O`qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, ulchov, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko`proq namunadan, sxemadan ko`chirish orqali o`rgatganlar.


Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o`rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B.Alberti shunday deb yozadi: «Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan olti ming yil avval mavjud bulgan». (5.40)



Rasm chizishga o`rgatish qadimgi Yunonistonda ham o`ziga xos yunalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o`rgatishda tabiatni, butun borlikni o`rganishga, unda guzalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan. Rasm ishlash uchun yog`och taxta ustiga asalari mum surtilgan va uning ustini buyoq, bilan

sidirga bo`yalgan. Rasm ana shu yuza ustiga o`tkir metall yoki suyak bilan chizilgan. Noto`g`ri chizilgan rasm qo`l bilan ishqalanib, chiziqlar o`rii to`ldirib o`chirilgan. So`ngra tekis yuzaga yangi rasm ishlangan.

Eramizdan avvalgi 432 yidda Yunon haykaltaroshi Poliklet kishi tanasi a'zolari o`rtasidagi mutanosiblik, proportsionallikka doir namuna sifatida «Dorifor» xaykalini yaratdi. Keyinchalik u barcha maxsus badiiy va badiiy bo`lmagan maktablarda o`rgatildi.



Yunon rassomlari borliqni va turmushdagi guzalliklarni kuzatish asosida tasvirlashni qonun va qoidalarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikricha go`zallik, ko`proq xushbichim, tartib, ritm va simmetriya, bo`laklar o`rtasidagi mutanosiblik, to`g`ri matematik munosabatlarda ifodalanadi.




Keyinchalik Yunonistonda rasm ishlashning bir necha o`ziga xos maktablari paydo bo`lgan. Ular orasida tasviriy san'at va uni o`qitish taraqqiyotida Sikion maktabi katta rol uynagan. Bu maktabda o`qitish ishlari ilmiy asosda tashkil etilgan bo`lib, bolalar ko`proq tabiatga, uning qonuniyatlarini bilishga qaratilgan.

Bu maktabni bitirganlar orasida Pamfildek mashhur rassomlar ham bo`lgan. Pamfil rasm chizishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ko`rsatib bergan. Bu hakda uning zamondoshi Pliniy shunday deb yozgan edi: «Uning sa'yi harakati bilan avval Sikionda, so`ngra Yunonistonda hamma bolalarga rasm chizishni o`rgatish lozimligi belgilab qo`yilgan. Boshlang`ich ta'lim rasm chizishdan boshlanishi qayd qilingan edi.


Uyg`onish davrida Italiya tasviriy san'ati va uni o`qitish metodi katta rol uynagan. Bu davrda rasm chizish umumiy ta'lim beradigan o`quv predmetlari qatoriga kiritildi. Mashhur rassomlardan Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da Vinchilar bu borada e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Ularning asarlarida fan va san'at o`rtasidagi aloqalar, proportsiya, perspektiva, anatomiya masalalari asosiy o`rinni egalladi. Ularning fikrlariga ko`ra naturaga qarab rasm ishlash o`qitishning asosini tashkil etishi lozim hisoblangan.

Ayiqsa, Leonardo da Vinchi tasviriy san'atni o`qitish metodikasi taraqqiyotiga katta ta'sir ko`rsatgan. U o`zining «Kniga o`jivopisi» nomli ishida rassomchilikni jiddiy ilmiy fan sohasi deb qaradi. U ko`p yillar davomida

Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirishda Uygonish davrining nemis rassomlaridan A.Dyurerning xizmatlari katta bo'ldi. U birinchi bo'lib rasm ishlashni engillashtirish uchun geometrik metodni uylab topdi.



Uygonish davri rassomlarining katga xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, ular tasviriy san'atda anatomiya, perspektiva, yorug'soyaning benihoya katta ahamiyatini asoslab berdilar. Natijada san'at asarlari o'zining yuksak badiiyligi va realistikligi bilan tomoshabinlarni lol qoldiradigan bo'ldi.



Shunga qaramasdan tasviriy san'atii o`qitish tizimini yaratish ularga nasib etmadi, Bu muammolar asosan XVI asrdan boshlab echila boshlagan. Bir qator akademiyalar tashkil etilishi ishni engillashtiradi. Bunday akademiyalar Florentsiya, Rim, Balon kabi shaharlarda ochildi. Avvalgi vaqtlarda bunday maktablar xususy shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo`lsa, endi davlat va jamoalar ham bunga o`z ulushlarini qo`sha boshlagan edilar. Bu o`quv yurtlari orasida mashhur rassom, haykaltarosh va muallim aka-uka Karrachilar hamda uning amakivachchalari Agostino va Annibale tomonidan ochilgan badiiy Akademiya ko`proq iz qoldirdi.



Ular yaratgan o`qitish tizimida o`quv materiallarini tez o`zlashtirish, o`quvchilarni ilmiy bilimlar, muntzam mashq, qonun-qoidalar asosida rasm ishlash malakalarni hosil qilish asosiy o`rinni egalladi.

Bu rassom-muallimlar o`zlaridan avval o`tgan rassomlarning tajribalari va yutuqlarini umumlashtirib, talabalarni shu asosda o`qitishga harakat qildilar. Ular o`z faolliklarida yorug`soya, kolorit, rang, konstruktsiya, anatomiya, perspektiva masalalariga alohida e'tibor berdilar. Ayrim tarixiy va sanatshunoslik ma'lumotlariga qaraganda Dyurerlar tomonidan bir qator nazariy va amaliy qo'llanmalar yaratilgan.

Rossiyada 1970 yillarga kelib umumiy o`rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o`qitish mazmunini to`g`ri belgilash va uni takomillashtirish borasida bir qator olim va rassomlar guruhi paydo bo`ldi. Bulardan biri badiiy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti tasviriy san'at laboratoriyasining mudiri, professor B.P.Yusov, ikkinchisi Rossiya maktablar ilmiy-tadqiqot institutining tasviriy san'at laboratoriyasining mudiri, professor V.S.Kuzin, uchinchisi Sobiq Ittifoq rassomlar Uyushmasining kotibi, uyushma qoshidagi estetik tarbiya komissiyasining raisi rassom B.M.Nemenskiy edi.

Ular mustaqil ravishda alohida-alohida olim va metodistlar guruhini tashkil etib, tasviriy san'atdan sinov dasturlarini yaratdilar.

Birinchisi va uchinchi gurux olimlari tomonidan tuzilgan dastur «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» deb nomlanib, u I-X sinflarda o`qitish uchun muljallangan edi. B.P.Yusov rahbarligida tuzilgan dastur har bir sinfda bu o`quv predmetini ikki soatdan o`qitilishini nazarda tutgan edi.

I.S.Kuzin rahbarligida tuzilgan dastur esa 1-7-sinflarda haftasiga 1 soatga muljallangan edi. Bu dasturlar 1985 yillarga qadar Sobiq Ittifoqining undan ortiq maktablarida sinovdan o`tkazildi. Bu dasturlar katta ijobiy-natijalar berganligiga qaramasdan amaliyotga joriy etilmadi. Biroq, undagi ayrim il g`or g`oyalar yangi tuzilgan dasturlarda o`z ifodasini topdi.

Rossiyada 1970-2000 yillar davomida olib borilgan ishlar mazmuni turli-tuman bo'ldi. U estetik va badiiy tarbiyaga doir xalqaro, federatsiya tifoida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, ilmiy-metodik tupamlar nashr etish, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish yunalishlarida amalga oshirildi.

1.2.O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitilishi

O`zbek halqi o`zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O`zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik turlari va me'morchilik nihoyatda rivojlangan bo`lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Xalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo`yqirilgan qal'a, Ajina tepa, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo`lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to`g`ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirga zamon rassomlari va xaykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bundan yuksak badiiy saviyadaga asarlarni usha davrda to`plangan ilg`or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko`p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o`tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so`zsiz umumiy badiiy ta'lim yunalishida bo`lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O`zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ruy berganligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo`g`illar, arab, rus istilollariga borib taqladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san`atning miniatyura turini gullab-yashnagani xam buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat Sharq, hattoki Evropa mamlakatlari san'atiga xam o`z ta'sirini ko`rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirot miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bog`dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari xam shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo`nilishida rivojlangan bo`lsada, lekin ulardan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o`qitishda bemaolol foydalansa bo`ladi. Xususan, umumiy o`rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va kalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borlikni idrok etish bo`limlari mavjud bo`lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o`rtasiga qat'iy chegara qo`yib

bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari xisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, xam umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xiroflik Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga minatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor.



Shuningdek, ustoz Mirok, naqqoshning Xirof "Nigoristoni" (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Bedzod va uning naqqoshlik maktabi», nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng istedodli yoshlarni to'plagan ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgattani va Tabrizda Sulton Mudammad, Mirzo Amir, Oko Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Mudammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo Mir Ali, Rizo Abbosiy, Maxmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy Xasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Mudammad, Mir Sayd Ali, Kosim Ali, Xeraviy singari unlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi tuzum

o`zini ko`rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o`lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruxi Sankt Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug`ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o`z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkiston yirik shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o`z asarlarining ko`rgazmalarini o`tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarkandda Turkiston o`lka badiiy halq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at tugaragi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so`ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga etdi va unda shug`ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o`kuvchidan 150 tasi o`zbeklar edi.

II–BOB. 5-7 SINFLARDA NATURAGA QARAB RASM ISHLASH MASHG`ULOTLARI METODIKASI

San'atshunoslik asoslari mashg`ulotlariga 5-7 sinflarda katta o`rin ajratilgan bo`lib, u o`quvchilarda badiiy madaniyatni shakllantirishni maqsad qilib qo`yadi. San'atshunoslik asoslari mashg`ulotlari tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari nazariyasi va tarixi, mashhur rassom, amaliy san'at ustalari, me'morlarning hayoti va ijodini o`rganishni o`z ichiga oladi.

Boshlang`ich sinflarda ayrim san'at asarlaridan ko`rgazmali qurollar sifatida foydalanish, bolalarga rassomlar va ularning ishlagan suratlari yuzasidan ayrim ma'lumotlar berishni nazarda tutadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga tasviriy san'atning turli janrlari, keng nazariy asoslari hisoblangan kompozitsiya, yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva qonunlari va qoidalari haqida nazariy bilimlar berish og`irlik qilishi munosabat bilan ularni 5-7 sinflarda o`rgatish rejalashtirilgan.

San'atshunoslik asoslari mashg`ulotlarining 5-7 sinflardagi hususiyatlaridan biri shundaki, bunda nazariy mashg`ulotlar, amaliy ishlar bilan mustahkam aloqada olib boriladi.

Xususan, tarixiy janr yuzasidan suhbat o`tkazilgandan so`ng tarixiy mavzularda bolalar rasm ishlaydilar. Shuningdek, bolalar amaliy ishlarda tasviriy san'atning tur va janrlari, tasviriy san'atning nazariy asoslariga doir olgan bilimlaridan foydalanidilar. Natijada, nazariy bilim va malakalar mustahkamlanadi. San'atshunoslik asoslarini o`qitish metodikasi kursida di-daktikaning ilmiylik, ko`rgazmalilik, muntazamlilik va ketma-ketlik, ta'lim va tarbiyaning birligi printsiplariga rioya qilishini talab etiladi. Ayniqsa, bunday mashg`ulotlarni ko`rgazmaliksiz o`tkazish mumkin emas. Darsda o`qituvchi ko`proq kinofilm, videofilm, diafilm, diapozitiv, slayd,, sanat asarlarining reproduksiyalari. foto nushalaridan foydalanishi samaralidir. bilan birga, viloyat markazlaridagi o`lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan san'at asarlari, shahar va qishloqlardagi yodgorlik haykallar va me'morchilik obidalari, tasviriy san'atdan joylarda tashkil etilayotgan ko`rgazmalardan san'at asarlarining nushalari bilan tanishtirib borish

muhimdir. San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarini ma'ruza shaklda emas, ko'proq savol, javob, munozara, uyin tarzida tashkil etilishi bolalarni faollashtiradi, materiallarni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.; Xususan, bironta ranggasvir asari tahlil qilinganda o'qituvchi bolalarga taxminan quyidagicha savollar bilan murojaat qilishi mumkin;

Bu san'at asarini avvallari ko'rganmisiz? Bu asarni kim ishgagan? Asarda kim yoki qanday voqea tasvirlangan? Asarning nomini kim biladi? Asarda yilning qaysi fasli tasvirlangan Uni qannday bilish mumkin? Asarda faslning qaysi davri tasvirlangan? Asarda kunning qaysi vaqti tasvirlangan? Asarning kompyuzitsiyasi qanday? Rassom o'z asarida tasvirlashning kaysi ifodalilik vositalaridan foydalangan? Asarning koloriti qanday? Rassom o'z asari bilan qanday g'oyani ifodalagan? Suvrat sizga yoqdimi, nega?

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda o'qituvchining tayyorgarligi muhim rol uynaydi. Avvalo, dars mavzusiga doir san'at asarlari tanlanadi. Bunda bir qator talablarga rioya qilish muhim. Ular asarlarning yuksak badiiy saviyada ishlaganligi, ularning mazmunini bolalarga yaqin bulishligi, shuningdek, suvrat reproduksiyasini a'lo sifatda bajarilgan bo'lishiga va boshqalar. Agarda o'rganish uchun tanlab olingan san'at asarlarining reproduksiyalari sifatsiz bo'lgani taqdirda yaxshisi, undan foydalanmaslik, unga mazmunan yaxshi bo'lgan va sifatli bajarilgan boshqa san'at asarini tanlash maqsadta muvofiqdir.

San'atshunoslik asoslari mashg'ulotining tuzishda va o'tkazish metodikasi haqida qat'iy bir tavsiya berib bo'lmaydi. U mashg'ulotning tuzilishi, mavzusi va darsning maqsadidan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishligi mumkin. Masalan, san'atshunoslik mashg'ulotlarining mavzulari quyidagicha bo'ladi:

1. Tasviriy, amaliy yoki me'morchilik san'atlarining turlari va janrlari. 2. San'atning u yoki bu turidagi oqim va yunalishlar. U yoki bu rassom, amaliy san'at ustasi yoki me'morning hayoti va ijodi. 4. U yoki bu davr san'ati. 5. Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlarining nazariy asoslari (kompozitsiya, yorursoya, rangshunoslik, perspektiva).

Bu mavzulardan ko`rinib turibdiki, ularni bir xil metodika asosida o`tkazib bo`lmaydi.

San'at asarlarini tahlil qilishda ularni solishtirib o`rganish muhimdir. Shu maqsadda turli rassomlarning bir xil mavzudagi asarlarini namoyish etib, o`rganish foydalidir. Xususan, I.Levitan, U.Tansiqboev, I.Shishkin, N.Karaxan, I.Xaydarov, Z.Inog`omov, A. Savrasov, A.Kuinji, A.Mo`minov, A.Mirsoatov kabi rassomlarning yil fasllariga bag`ishlangan manzara janridagi asarlaridan 2-3 tasini namoyish etib va solishtirish orqali o`rganish mumkin.

Aytaylik, kuz mavzusidagi asarni tahlil qilishda faqat kuz mavzusidagi asar bilangina emas, balki bunday asarlarni bahor, qish mavzusidagi asarlar bilan ham solishtirib o`rgansa bo`ladi.

San'at asarlarini reproduksiyalarini texnika vositalari orqali namoyish etganda asarlardagi detallarni yirik holda ko`rsatilishi obrazlarni chuqur idrok etish, portretlarda shaxsning ichki dunyosini tushunib etishga imkon beradi.

San'atshunoslik mashg`ulotlarining muvaffaqiyati ko`p jihatdan ularni turli yo`llar va metodlarni qo`llash orqali o`tkazilishiga ham bog`liq. Xususan, bunday mashg`ulotlardan bolalarga san'at asari haqida insho yozdirish, san'at turlari yoki janrlariga oid reproduksiyalar yig`dirish yoki u yoki bu rassom haqida materiallar tuplatish, tasviriy san'atga doir viktorina, chayn-vord, krassvordlar echtirish, o`zi yashaydigan joydagi rassomlar bilan uchrashib, ular haqida ma'lumot tuplash yoki albomlar tayyorlash mumkin. Bunday ishlar amaliy bezak, me'morchilik san'atlari yuzasidan ham olib borilishi mumkin.


2.1. Naturaga qarab rasm ishlash

Naturaga qarab tasvirlash. Naturaga qarab tasvirlash ikki bo`limdan tashkil topadi.

1.Naturaga qarab rasm ishlash. 2.Naturaga qarab haykal ishlash.

Bu ikkala bo`limga boshlang`ich sinflarda etarlicha o`rin berilgan bo`lib ular bolalarda tasviriy malakalarni shakllantirishga qaratiladi. 5-7-sinflarda bu ikkala yo`nalishlar buyicha mashg`ulotlar davom ettiriladi.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg`ulotlari boshlang`ich sinflar-dagiga qaraganda anchagina murakkablashadi va u o`quvchilarning yoshlik hususiyatlari, shuningdek, rasm ishlash malakalarining shakllanganligi bilan asoslanadi. Naturaga qarab rasm ishlashga 5-7 sinflarda savodli rasm ishlashdek jiddiy talablar qo`yiladi. Bunday mashg`ulotlarda bolalar yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva asoslari yuzasidan nazariy bilimlar beriladi. Yorug`soya, perspektiva qonunlari asosida kub, prizma, peramida, konus, shar va geometrik shakldagi predmetlar rasmini ma`lum ketma-ketlikda chizdirish maqsadga muvofiqdir. Keyinchalik topshiriqlar murakkablashib borib, natyurmortlar bir necha predmetlardan tashkil topadi.



Naturaga qarab rasm chizish darslarining oxirgi bosqichlarida bo`larga oddiy va kichik ulchovdagi amaliy san'at namunalari, murakkab tuzilishdagi gullar,

mevalar, sabzavotlardan tashkil toptan natyurmotlar qo'yiladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar naturaning tuzilishini, rangini, shaklini, hajmini narsalarning asliga yaqinlashtirib ishlashlari talab etiladi.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida, ham qalamtasvir, ham rangtasvir ishlari bajariladi. Shuningdek, uzoq, davom etadigan (1-2 soatli) mashg'ulotlar bilan birga qisqa vaqt davom etdagan (10-15 minut) qoralama va ranglamalar ham ishlatiladi.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlaridagi murakkab vazi-falarni amalga oshirish uchun yorug'soya, perspektiva, rangshunoslikning nazariy asoslarini o'rganish maqsadida gipsli shar, kub, piramida, konus, silindr kabi geometrik shakllarni chizdirish yaxshi samaralar beradi.

5-7-sinflarda natyurmort ishlash mashg'ulotlarida kolorit muammosi ham bor. Xususan, shu maqsadda xalq amaliy san'ati namunalaridan (sovuq rangda ishlangan chinni servislar) chizish uchun sovuq koloritli natyurmotlar, kuzgi mevalar, gullar va predmetlardan iliq koloritli natyurmotlar qo'yiladi.

Natyurmotlar ishlashda bolalarni akvarelni ko'p katlamli, qalin qilib ishlashlariga, oq buyoqdan foydalanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Chunki, bunda rasm ranglari loyqalashib ketib, ranglar toza ko'rinmaydi.

5-7 sinflarda naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarining yana bir o'ziga xos xususiyatlari, bu faqat quruq qog'ozda emas, hul qog'ozda ham buyoq bilan rasm ishlashdir.


Natura uchun narsalar tanlash o'qituvchining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shuning uchun bu masalaga alohida e'tibor berib natyurmort uchun material tanlashda bir qator mezonlarga rioya qilish kerak bo'ladi:

1. Narsalarning estetik jihatlari, ya'ni ular shakl, rang jihatdan yoqimli bo'lib, bolalar e'tibori va diqqatini o'ziga tortuvchan bo'lishligi.
2. Narsalar har jihatdan bolalarga tanish, mohiyati jihatdan foydali, ularning hayotida uchraydigan, shuningdek, bolalarda qiziqish uyg'otadigan bo'lishligi.
3. Tanlanadigan materiallarni naturaga qarab rasm ishlash darslarining maqsad va vazifalariga mos bo'lishligi.

4. Narsalar yuzasini silliq va yaltiroq, rang-barang bo`lmasligi. Ular narsalar hajmi va ranglarini to`g`ri ko`rishni qiyinlashtiradi va chalkashtiradi.

5. Natura uchun tanlanadigan narsalar tuzilishi jixatdan tushunarli, bolalar idrokiga mos, yorug`soyalari, blik, reflekslari yaqqol ko`rinib turishligi.

O`qituvchi bolalarning mustaqil ishlari jarayonida ularning faoliyatlarini kuzatadi hamda tegishli yordamlar ko`rsatadi. Bunda u albatta bush o`zlashtiruvchi bolalarga ko`proq e`tibor beradi. Ish jarayonida bolalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilayotgan rasmlardan namunalar butun sinfga namoyish etiladi.




2.2. Kompazitsiya mashg`ulotlari

5-7-sinflarda rang tasvir kompozitsiyasi 1-4-sinflar bilan umumiylikka ega va u davomi xisoblansada, biroq ularning bir-birlaridan farqi Bunda asosiy e'tibor mavzular va topshiriqlarni o`quvchilarni yoshi, qobiliyati, ularning avvallari o`zlashtirgan bilim va malakalari xisobga olinadi.

Rangtasvir mashg`ulotlari, o`qitish metodikasi ta'lim mazmuni asosida tashkil etiladi. Bunda topshiriqlar o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzular asosida o`tkaziladi. Ular asosan, manzara, turmush, tarixiy, batal, afsonaviy, marina, animal janrlar asosida bo`ladi.

Bolalar beshinchi sinfnig dastlabki mashg`ulotlarida kompozitsiya, hajm, rangshunoslik, yorug`soya, perspektivadan nazariy bilimlarni o`zlashtirganliklarini xisobga olib, 6-7-sinflarda rangtasvir kompozitsiyasidan beriladigan topshiriqlar ma'lum miyorda murakkablashadi, ularni bajarishga ajratiladigan soatlar ham oshadi. Chunki, 5-7-sinflardagi rangtasvirdan kompozitsiya ishlash ma'lum tayyorgarlik asosida olib boriladi. Bunda mashg`ulotlar ko`proq rangtasvirchi rassomning ijodiy ish uslubiga yaqinlashadi. Bunda o`quvchi mavzuni bilib olgandan so`ng shu asosda bironta g`oyani ilgari suradi. Aytaylik, o`zbek halqining mustaqillik uchun kurashini ko`rsatuvchi mavzu tavsiya etilsa, bolalar o`zbek halqining millatparvar, vatanparvar ekanligini o`z xalqi, Vatani uchun jonini xam ayamasligini, halq jasoratini tasvirlashni o`z suvratining g`oyasi sifatida ilgari suradi. Ana shu g`oya asosida mavzu yuzasidan materiallar tuplashi kerak bo`ladi. So`ngra ana shu tuplangan materiallar asosida suvratning bir necha variantdagi eskizlari ishlanadi. Suvrat mazmuni yuzasidan qat`iy bir eskiz tanlangandan so`ng uni bajarishga kirishiladi. O`quvchilar rassomlar kabi yuqorida qayd etilganidek katta tayyorgarlik ishlarini olib bormaslarda, xar qalay ma`lum ishlarni bajarishlari kerak bo`ladi. Maktab sharoitida rangtasvirdan toshpiriq mavzusi e'lon qilingach, o`qituvchi uni tushuntiradi. Bunda fakat topshiriqni emas uni bajarish tartibi haqida ham fikr yuritadi.



Darsning oxirida sinf ishiga yakun yasash maqsadida muvaffaqiyatli, o`rtacha va bush ishlangan bolalar rasmlaridan ayrimlarini ajratib olinadi hamda ular butun sinf ishtirokida tahlil qilinadi. Bunda ishdagi yutuq va kamchiliklar aniklanadi hamda ularning sabablari qayd qilinadi.

XULOSA

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, O`zbekistonda ta`lim sohasida keng imkoniyatlar ochildi, vatanimizning halqaro sahnadagi muvaffaqiyati, obro`u e`tibori va o`rni milliy o`zligimizni anglashda, Tasviriy san`at fanlari etakchi mavqe kasb etib, har bir fuqoroning mamlakat taqdiri uchun mas`ullik hissini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang`ich kurslardan boshlab Tasviriy san`at mashg`ulotlarini ham amaliy, ham ilmiy–nazariy jihatdan yaxshi o`qitilishi shart.

O`tmish tarixdan aniq ma`lumki, qadimda buyuk rassomlar tasviriy san`atning ilmiy asoslarini qo`llash natijasida, katta yutuqlarga erishganlar.

Bularni talabalarga o`qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan–ilmiylik prinsipi yetakchi o`rin egallashi lozim.

Men o`zimning kurs ishimda tasviriy san`at haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim Shu bilan birga san`atga doir bir nechta misollarni ko`rsatdim. Men o`z kurs ishimda oldinga qo`ygan maqsadimga erishdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. N. Abdullaev. San`at tarixi. 1 – tom. –T.:“O`qituvchi”. 1986.
2. B. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash. -T.:“O`qituvchi”. 1984.
3. B. Boymetov, S. Abdiraslov. Chizmatasvir. –T.: G`ofur G`ulom-matbaa ijodiy uy. 2004.
4. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi. -T.: “Fan”.2004
5. S. Abdiraslov. Tasviriy san`at atamalari. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2003.
6. B. Boymetov. Portret qalamtasviri. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2001.
7. В. С. Кузин. Психалогия. – М.: “Вешная школа”. 1982. искусства в школе. М. “Просвещение”. 1980.
8. R.Hasanov Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. T.: Fan. 2004
9. www.nbgf.intal.uz